



2021- yil yanvar-may oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 1613,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning yanvar-may oylariga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.





Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 212,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning yanvar-may oylariga nisbatan oʼsish surʼati 136,9 % ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,2 % punktga koʼpayib, 13,2 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Qoʼngʼirot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 55,0 %, yoki 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 167,7 %), Taxiatosh (ulushi 37,1 %, yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 163,2 %), va Toʼrtkoʼl tumani (ulushi 34,1 %, yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 56,2 marta koʼp)ga toʼgʼri keldi.



2021- yil yanvar-may

55,0

Qoʼngʼirot

37,1

Taxiatosh

Toʼrtkoʼl



QORAQALPOGʼISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



2021- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **74,4 %** i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-may oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **3,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **98,2 %** ni tashkil etgan holda **1200,1 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxona
va mikrofirmalar, ulushi, % da**




Ma‘lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri 551,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 88,9 %, Mo‘ynoq tumani (112,9 mlrd. so‘m, ulushi 94,3 %), To‘rtko‘l (76,0 mlrd. so‘m, ulushi 56,8 %) va Qo‘ng‘iroq (61,3 mlrd. so‘m, ulushi 38,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 12,4 % ni tashkil etdi yoki 201,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 116,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1497,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 7,2 % va 92,8 % ni tashkil etdi.



2021-yil yanvar-may

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI



**2021- yilning yanvar-may oylarida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1613,4	103,0	100,0
Nukus sh.	620,8	105,7	38,5
tumanlar:			
Amudaryo	57,6	108,8	3,6
Beruniy	53,6	100,9	3,3
Bo'zotov	26,7	101,6	1,7
Qorao'zak	28,2	101,9	1,7
Kegeyli	30,7	95,4	1,9
Qo'ng'irot	157,8	109,1	9,8
Qonliko'l	24,5	95,5	1,5
Mo'ynoq	119,7	104,6	7,4
Nukus	63,1	87,3	3,9
Taxiatosh	72,7	110,3	4,5
Taxtako'pir	32,8	97,0	2,0
To'rtko'l	134,0	107,9	8,3
Xo'jayli	46,0	71,9	2,9
Chimboy	36,9	105,8	2,3
Shumanoy	32,2	103,0	2,0
Ellikqal'a	76,1	100,3	4,7

2021- yil yanvar-may

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

67,8 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,8 % i yoki **1093,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

48,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **103,7** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,8 % ni tashkil etdi.

66,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **800,5** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,7 % ni tashkil etdi


94,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **189,5** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.

Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil yanvar-may

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,9 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,3 %** punktga kamayib, **74,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga ko'payib, **21,3 %** ni tashkil etdi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,3** % ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,6** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **77,7** % (**7,6** % punktga ko'paydi) ni tashkil etdi.



Kichik korxona
va
mikrofirmalar



2020- yil
yanvar-may




2021- yil
yanvar-may

2021- yil yanvar-may

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,5 %** punktga ko'paydi va **30,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **69,3 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,5 %** punktga kamaydi.



2021- yil yanvar-may

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI




**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-may**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1613,4	212,3	1200,1	201,0
Nukus sh.	620,8	44,3	551,9	24,6
tumanlar:				
Amudaryo	57,6	-	29,5	28,1
Beruniy	53,6	-	29,5	24,1
Bo'zotov	26,7	-	26,1	0,6
Qorao'zak	28,2	0,1	27,3	0,8
Kegeyli	30,7	3,8	16,7	10,2
Qo'ng'irot	157,8	86,8	61,3	9,7
Qonliko'l	24,5	0,1	16,6	7,8
Mo'ynoq	119,7	1,5	112,9	5,3
Nukus	63,1	0,1	44,2	18,8
Taxiatosh	72,7	26,9	36,0	9,8
Taxtako'pir	32,8	0,0	30,2	2,6
To'rtko'l	134,0	45,8	76,0	12,2
Xo'jayli	46,0	0,2	41,5	4,3
Chimboy	36,9	-	21,4	15,5
Shumanoy	32,2	0,1	28,3	3,8
Ellikqal'a	76,1	2,5	50,7	22,9

2021- yil yanvar-may

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 38,5 %, Qo'ng'irot tumani -9,8 %, To'rko'l tumani – 8,3 % va Mo'ynoq tumani – 7,4 % ga to'g'ri keldi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar-may

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**